

O'ZBEK ADABIYOTIDA IRIM SO'ZLARINING QO'LLANISHI

Ochilova Yulduz Axmad qizi

Buxoro davlat pedagogika institute,

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13986551>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biror maqsad, niyat bilan qilingan xurofiy tadbir (masalan, to'ydan yaxshi niyat bilan biror narsa olib ketish; dard-baloni qaytarish, ziyon-zahmatdan, ko'z tegishdan saqlash uchun biror narsani boshdan o'girib tashlash va boshqalarda qo'llaniladigan irimlar haqida ma'lumotlar keltirilgan).

Kalit so'zlar: irim, aytim, folklor, adabiy meros, janr, obraz, tahlil, ilmiy faoliyat.

THE USE OF IRIM WORDS IN UZBEK LITERATURE

Abstract. In this article, a superstitious event made with a purpose, intention (for example, taking something from a wedding with good intentions; turning something away from one's head in order to ward off pain, damage, trouble, eye contact, etc.) information about the used irims is given).

Key words: irim, saying, folklore, literary heritage, genre, image, analysis, scientific activity.

УПОТРЕБЛЕНИЕ СЛОВ ИРИМ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье суеверное событие, совершаемое с определенной целью, намерением (например, взятие чего-либо со свадьбы с благими намерениями; отворачивание чего-либо от головы, чтобы отвести боль, вред, неприятности, зрительный контакт и т.п.) дана информация об использованных иримах).

Ключевые слова: ирим, поговорка, фольклор, литературное наследие, жанр, образ, анализ, научная деятельность.

Har bir xalqning o'z urf-odati, irimi mavjud. Ular bu odat va irimlarga o'ta jiddiy yondashishadi, ishonishadi. Bilamizki, o'zbek xalqi azaldan bolajon xalq. Yevropa madaniyatida esa farzandlarini balog'at yoshiga yetgandan so'ng qaramog'idan chiqarishadi. O'zbek xalqi farzandini jonidan ortiq suyadi, ammo tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi bola tarbiyasida qarg'ish so'zlari juda ham xavfli rol o'ynab kelmoqda. Bolani qarg'aganda uning ongostiga joylanadi. Chunki olimlarning tajribasidan malum bo'lganki, insonga qanday so'z aytsa u ong ostiga joylanadi.

Inson tanasida suv yig'ilib eng kop qismi bosh miyada saqlanganadi. Miyaga saqlangan suvning esa xotirasi bor ekan. Agar farzandiga sen garangsan deb aytsa ota yoki onasi bu uning miyasidagi suvning xotirasiga joylanarkan. Bu esa o'z navbatida farzandning kelajagida katta og'ir jarohat qoldiradi(hattoki o'lim bilan ham yakunlanishi mumkin)

Masalan “Yer tartgir” qarg’ishi - ertaroq bu olamni tark etib, yer seni bag’riga ertaroq olsin, ma’nosini bildirib keladi.

Bu asosan qipchoq shevasida qo’llanib kelingan. Irim so’zlari esa xalq orasida asrlar davomida asosan qariyalar orasida juda ham mashhur bo’lib kelgan.

Ayniqsa qariyasi bor xonadonlarda irim so’zlari oila a’zolari ongiga juda ham yaxshi singdirilgan bo’ladi. Odatda, oilali ayollarimizning burni qichisa o’zi o’ziga go’sht yeyin deb uch marotaba aytgan (aytish davomida qo’lini musht qilib burniga o’zi urgan). Bu bilan ayol o’z o’rnida eridan tayoq yemasligini oldini olish irimi hisoblangan. Bu irim Qashqadaryo hududida ham Buxoro hududida ham shakllangan. Irim so’zlari imom hatiblar tomonidan taqiqlanadi.

Masalan: “Kech payti uy supirilmaydi”, ushbu irim so’zini yoqlamagan.

Chunki ertadan kechga qadar ishlaydigan ayollarimiz kechki vaqtga uy supurishni mo’ljallaydi, sharoiti shuni taqazo etadida.

Masalan:

1. Supurgini qo'lga bermaydi – yomon bo’ladi, qo’lidan bergen kishining sog’lig’iga yomon ta’sir etadi

2. Qaychini ochiq qoldirmaydi – sababi uyda janjal bo’lishi mumkin.

3. Kul bilan musurni aralashtirmaydi – yomon bo’ladi, odatda to’y ko’ngilsiz voqeaga aylanishi mumkin degan fikr mavjud.

4. Qalampirni qo'lga bermaydi – Odatda achchiq narsa qo’lga emas, balki tokcha ustiga beriladi.

Shu ma’qul ko’rilib kelinmoqda xalq orasida.

5. Supurgini tik qo'ymaydi – yomon vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin, yomon bo’ladi.

6. Otasining oyoq kiyimiga sabzi solish -Uylanmoqchi bo’lsa o’g'il bolalar dadasingning oyoq kiyimiga sabzi solib qo'yishsa demakki, o’g’li uylanishni xohlayapti degan ma’noda. Bu holat aslida o’zbek millatining hayosining bir belgisidir.

7. Shirinlik yeish - belgili qizlarning nonsindiraridagi konfetni irim qilib bo'yqizlar yeysi, shundan keyin bo'y qizlarga hamsovchi kelib to'y bo'lib ketsin ilohim deyilgan shu bilan boy badavlat bo'lsa bo'y qizlarga ham yuqsin ma'nosida ham shu holat sodir etilib kelinmoqda.

8. **To'qqiz ochish marosimi** -bo'y qizlar belgili qizlarning kuyov tomonidan kelgan to'qqizini irim qilib to'y bo'lay deb birinchi ochadi!

9. **Kasal kishini qorong'uda so'rab bormaydi** – odatda bu mumkin emas, bemor kishining sog'lig'iga yomon ta'sir etishi mumkin, asosan kunduzi so'rab borgani yaxshi deyilgan.

10. **Janozadan kelgandan so'ng birdan uyg'a kirilmaydi** – avval ustidagi nimchasi yoki ayollar boshidagi katta ro'molini hovliga yechib qo'yib, keyin uyg'a kirishi kerak deyilgan

11. **Tirnoqni seshanba kuni olmaydi** – bu kuni tirnoq olish mumkin emas, yomon vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin deyilgan.

12. **Kech payti tirnoq olmaydi** – kech payti emas yorug' payti tirnoq olishi kerak, bordiyu bu paytda olsa, yomon holatlarni, ko'ngilsiz holatlarni keltirib chiqarishi mumkin deyilgan

13. **Sugal chiqqanda** - qo'lidan sugal chiqsa, qurbaqaga yalatsa yaxshi bo'ladi.

14. **Belgili qizlarning boshiga ro'mol o'rashi** - begili qilingan qizlar boshiga ro'mol o'rash yuradi, chunki egali hisoblanadi.

15. **Erkaklarning boshiga do'ppi kiyishi** - marakaga erkaklar boshiga do'ppi kiyib borishi kerak.

16. **Ta'ziyaga borayotgan ayollar ro'mol o'rashlari** - biron kishi o'tib qolganda ayollar boshiga katta ro'mol o'rash borishi shart

17. **Qontalash** - Biron oilada biron kishi kuchli og'ir dard bilan yotib qolganda sog'ayib ketishi uchun xalqqa qontalash qilinadi.

18. Ba'zi xalqlarda juma kuni **13-sanaga** to'g'ri kelsa, baxtsizlik keltiradi degan irim bor.

Bu irimning kelib chiqishi haqida bir necha rivoyatlar mavjud.

Ulardan biri Qadimgi Ahd diniy kitobidan olingan. Unda yozilishicha shu kuni Qobil ukasi Hobilni o'ldirgan. O'shandan beri juma kuni 13-sanaga to'g'ri kelsa, bu kun baxtsizliklar belgisiga aylanib qolgan.

Yana bir rivoyat bo'yicha bu kun tampliyerlar ordeni voqeasi bilan bog'liq. 1307 yilning 13 oktyabri juma kuniga to'g'ri kelgan. Aynan shu kuni Fransiya qiroli Phillip IV papa Kliment V ning muhri bosilgan maxfiy hujjatga tayanib, orden a'zolarini hibsga olishni buyuradi. Orden a'zolari dinga qarshi chiqishda va fahsh ishlarida ayblanadi. Natijada orden tarqatib yuboriladi, hibsga olingan tampliyerlar esa qyinoqqa solinib, so'ngra qatl qilinadi.

19. **Ostonadan turib narsani oldi-berdi qilish mumkin emas.** Gap shundaki, qadim zamonlarda o'liklar kuli uy ostonasi tagiga ko'milgan. Shuning uchun ostonada turib oldi-berdi qilish ularning ruhini bezovta qilishi mumkin deb hisoblanar edi. Aynan ana shu sababli ostonada o'tirish ham mumkin emas.

Bundan tashqari ostona – bexavotir uy bilan xavfli dunyo yoki yanaham qo’rqinchlisi – tiriklar dunyosi bilan o’liklar dunyosi o’rtasidagi chegara hisoblanadi.

20. Yarim yo’ldan qaytish mumkin emas. Bu irim ham ikki dunyo oralig’i hisoblangan ostona bilan bog’liq. Maqsadiga erisholmasdan yarim yo’lda qaytayotgan odam kuchsiz holda bo’ladi. Bu esa ruhlar bezovtaligiga sabab bo’ladi. Yoki bizning olamga kirib olishni istagan mavjudodlar uchun imkoniyat bo’ladi.

21. Soat hadya qilish mumkin emas. Hattoki hozirgi o’ta madaniyatli zamonda ham soat hadya qilish nomaqbul sovg’a hisoblanadi. Bu irim qadimgi Xitoydan kirib kelgan. Unda aytishicha soatni sovg’a sifatida qabul qilish janozaga taklif qilishni bildiradi.

22. Pichoqdan narsa yeb bo’lmaydi. Qadim zamonlardan beri pichoq nafaqat mehnat quroli, balki har xil dushmanlardan va ins-jinslardan himoyalanish vositasi, deb hisoblanib kelingan. Shuning uchun ham irim bo’yicha pichoqdan narsa yeish ins-jinslarni g’azabini keltirish mumkin, bu esa o’z navbatida odamni jaxhldor va agressiv qilishi mumkin degan tushuncha mavjud.

23. Chorrahadan hech narsa aolish mumkin emas. Aytishlaricha, agar biror kasallik yoki baxtsizlikni qandaydir narsaga o’tkazib, keyin bu narsani chorrahaga tashlab ketilsa, ins-jinslar ularni olib ketadilar. Aynan shuning uchun ham chorrahadan topib olingan narsani olish ko’ngilsizliklar olib kelishi mumkin. Topib olingan narsa qanchalik qimmatbaho bo’lsa, kasofati ham shunchalik kuchli bo’ladi

24. Bir poy oyoq kiyimda yurish mumkin emas. Bu irim ham qadim zamonlardan beri mavjud. Odamlarning aytishicha, bir poy oyoq kiyim kiyish erta yetim bo’lishga olib kelar ekan.

25. Singan oynaga qarash mumkin emas. Aytishlaricha, singan oynaga qarash baxtsizlik olib kelishi mumkin.

26. Ijobiy yoki salbiy axborot belgisini ifoda etuvchi irim-sirim bilan bog’liq til birliklari. Bunday irim-sirimlar ma’lum maqsadga yo’nalmaydi. Ular bir narsapredmet, hayvon, raqam, rang kabi birliklar orqali anglanadigan ijobjiy yoki salbiy belgiga ega irim-sirim bilan bog’liq til birliklaridir.

Bunday irim-sirimlarda tavsifiy matn ishtirok etmaydi balki nutq suppozitsiyasida uning belgisi anglaniladi.

Misol uchun: taqa- omad belgisi, siniq oyna- baxtsizlik belgisi va hakazo.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek xalq irimlari ajdodlarimizning yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, hayot va o’lim haqidagi qadimiy e’tiqodiy qarashlari asosida yuzaga kelgan bo`lib, kundalik turmushda ularga amal qilish o`ziga xos an`ana hisoblanadi:

- biron-bir falokat sodir bo'lmasligi uchun;
- ziyon-zahmatga yo'liqmaslik
- xatarning oldini olish chorasini qilmoq, qidirmoq;
- irim tarzida biror narsa qilmoq.

REFERENCES

1. Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). THE EXPRESSION OF THE NATIONAL TRADITIONS AND BELIEFS IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 469-472.
2. Рахимов Ф. Б., Шарипова М. Б. МЕСТО ИННОВАЦИЙ В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ПРОБЛЕМ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).
3. Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. К. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46)
4. Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 10-5. – С. 48-49.
5. Sharipova M. B., Nizomova S. S. THE ARTISTIC IMAGE OF THE IMAGE OF "WATER" IN THE POEM //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – 2018. – №. 11. – С. 75.
6. Шарипова М. Б., Муродова Ш. Ш. ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ» //Научный журнал. – 2020. – №. 9. – С. 32-34.
7. Шарипова М. Б. и др. ПРОФЕССИЯ «УЧИТЕЛЬ» И ЕЁ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1. – С. 24-25.